

ISSN 2181 - 7286

2/2023

ТАЪЛИМ ТИЗИМИДА ИЖТИМОЙ-ГУМАНИТАР ФАНЛАР



ISSN 2181-7286

2/2023

Таълим тизимида ижтимоий-гуманитар фанлар

МУНДАРИЖА

ФАЛСАФА

Куанишова Д.Т. Гендер тенглик ва аёллар ижтимоий мавқеини оширишнинг фалсафий таҳлили.....	6
Межевникова О.П. Виртуальный постчеловек.....	11
Зияев Ф.С. Маънавий мерос – маънавият тараққиётининг асоси.....	15

ФИЛОЛОГИЯ

Юнусова Х.Ю. К вопросу изучения творчества С.П. Бородин.....	21
--	----

ТАРИХ

Mamadaliyev X. Farg‘ona vodiysi shaharalarida dumalar faoliyati.....	25
Mamadaliyev Sh. Turkistonda xx asr 20-yillari boshlarida ocharchilik bolalarni qutqarish yo‘lida qilingan harakatlarning o‘rganilishi.....	29

ПЕДАГОГИКА ВА ПСИХОЛОГИЯ

Islamova M.Sh., Ximmataliyev D.O. Kimyoviy bilimlar asosida harbiy kompetentlikni rivojlantirish.....	34
Axmedova Sh.A., Tashpulatov R.X., Yakubova M.M. Masofaviy ta‘limda va muxandislik va kompyuter grafika o‘quv fanini Microsoft Power Point dasturi yordamida animatsiyadan foydalanish.....	39
Fayzullayev U.S., Nishonov Sh.Sh. Masofaviy ta‘limda axborot xavfsizligini ta‘minlash.....	43
Karimova N.A., Shermatov J.K. Ta‘limda ijtimoiy tarmoqlarning o‘rni.....	48
Нўъманова С.Э. График фанларни ўқитишда бўлажак мутахассисларнинг касбий компетентлигини шакллантириш.....	53
Омонова М.Д. Педагогикада танқидий фикрлаш масалалари.....	58
Уралов С. Стажировка – дуал таълим тизимида ишлаб чиқариш таълими усталарининг малакасини ошириш омили сифатида.....	63
Турдиев Ж.П. Таълим жараёнида умумтехник тайёргарликни такомиллаштиришга йўналтирилган эвристик масалаларни қўллаш методикаси.....	69
Sabirova D.U., Samatova K.M., Tursunboyev L.E. Чизма геометрияни ўқитишни тадқиқ қилиш.....	73
Zaxidov Sh.B. Mudofaani ta‘minlash tizimida harbiy-professional tayyorgarlikni retrospektiv tahlili.....	78

ИҚТИСОД

Каримов Д.М., Адиллов Б.Б. Социально-экономические аспекты борьбы с бедностью в пост пандемию: международный опыт и ситуация в Узбекистане.....	84
Rejapov X.X., Kadirov A.A. Davlat byudjetining iqtisodiyotga xarajatlarini samaradorligini oshirish yo‘nalishi.....	90
Абдуллаева М.К., Адиллов Б.Б. Уй хўжалиги фаолиятининг институционал жиҳатлари.....	95
Эрназаров Г.Б. Хизмат кўрсатиш соҳасини ривожлантиришнинг ижтимоий-иқтисодий аҳамияти ва унинг статистик таҳлил.....	103
Хўжаев Ж.И. Мамлакатни ривожлантиришда рақамли иқтисодиётнинг ўрни.....	110
Рашидов Р.А. Инновацион иқтисодиёт шароитида кичик бизнеснинг сифат жиҳатидан ўзига хослиги.....	114
Iminova N.A., Xasanova X.X. Iqtisodiy islohotlar sharoitida bank faoliyatida risklarni boshqarish yo‘llari.....	122
Каримова Л.С. Интеллектуал капитал ва инсон капиталининг шаклланиш асослари.....	130
Қобулов Ҳ.А., Мамадалиев Қ.Қ. Агрокластерлар фаолиятини молиялаштиришнинг самарали тадбирларига оид хориж тажрибалари.....	135

KIMYOVIY BILIMLAR ASOSIDA HARBIY KOMPETENTLIKNI RIVOJLANTIRISH

РАЗВИТИЕ ВОЕННЫХ КОМПЕТЕНЦИЙ НА ОСНОВЕ ХИМИЧЕСКИХ ЗНАНИЙ

DEVELOPMENT OF MILITARY COMPETENCES BASED ON CHEMICAL KNOWLEDGE

Islamova M.Sh. (Chirchiq oliy tank qo'mondonlik muhandislik bilim yurti dotsenti)

Ximmataliyev D.O. (Chirchiq davlat pedagogika universiteti professori)

Bugungi kunda harbiy ta'lim-tarbiya jarayonini zamon talablari asosida rivojlantirish, jumladan oliy harbiy ta'lim muassasalarida harbiy mutaxassislarni tayyorlashda kimyo fanining mazmunini umumkasbiy va ixtisoslik-harbiy texnik fanlar asosi sifatida fanlararo bog'lanish orqali yaqinlashtirish zarurati mavjud.

Ushbu maqolada kimyoviy bilimlar asosida harbiy kompetentlikni rivojlantirishning zarurati va ahamiyati, kompetensiyalar va harbiy kompetentlikni rivojlantirish bo'yicha olib borilgan ilmiy tadqiqotlar va adabiyotlar tahlili, harbiy kasbiy kompetentlik va uni rivojlantirishda kimyoviy bilimlardan foydalanish imkoniyatlari xususida fikrlar bayon etilgan.

Kalitli so'zlar: *Ofitser, tarbiya, harbiy ta'lim, modernizatsiyalash, xorijiy tajriba, kimyo, fan-texnika, ishlab chiqarish, kursant, kasbiy kompetentlik, innovatsion yondashuv, pedagogik texnologiya, axborot-kommunikatsiya texnologiyalari.*

Сегодня возникает необходимость развивать процесс военного образования исходя из требований времени, в том числе и при подготовке военных специалистов в высших военных учебных заведениях, сближать содержание химии как основы общепрофессиональных и специальных военно-технических наук через междисциплинарную связь.

В данной статье описаны необходимость и важность формирования военной компетентности на основе химических знаний, проведен анализ научных исследований и литературы по развитию компетенций и военной компетентности, военно-профессиональной компетентности и возможности использования химических знаний в ее развитии.

Ключевые слова: *Офицер, подготовка, военное образование, модернизация, зарубежный опыт, химия, наука и техника, производство, курсант, профессиональная компетентность, инновационный подход, педагогическая технология, информационно-коммуникационные технологии.*

Today there is a need to develop the process of military education based on the requirements of the time, including the training of military specialists in higher military educational institutions, to bring together the content of chemistry as the basis of general professional and special military-technical sciences through interdisciplinary

communication.

This article describes the necessity and importance of the formation of military competence based on chemical knowledge, analyzes scientific research and literature on the development of competencies and military competence, military professional competence and the possibility of using chemical knowledge in its development.

Keywords: *Officer, training, military education, modernization, foreign experience, chemistry, science and technology, production, cadet, professional competence, innovative approach, pedagogical technology, information and communication technologies.*

Kirish

Mamlakatimizda O‘zbekiston Qurolli Kuchlari uchun yuqori malakali harbiy kadrlarni tayyorlash, Vatanga sadoqat, muhabbat ruhida tarbiyalash, ularga qat’iylik, jasurlik va xizmat burchini bajarishga mas’uliyat bilan yondashish hislarini singdirish davlatimiz mudofaa siyosatining asosiy talablaridan biridir. Talab darajasida bo‘lajak ofitserlarni tarbiyalashda harbiy ta’lim tizimi va mazmunini modernizatsiyalash, harbiy ta’lim sohasiga ilg‘or xorijiy tajribalarni joriy etish, kimyo fanini o‘qitish sifatini oshirish, fan-texnika va ishlab chiqarishning yangicha talablariga mos ravishda, kimyo fanini harbiy-kasbiy fanlar bilar muxtasar o‘qitish, kursantlarga berilayotgan bilimlar mazmuniga harbiy sifatlar va zarur harbiy kasbiy kompetentlik sifatlarini singdirish, ilg‘or innovatsion yondashuvlarga asoslangan davlat ta’lim standartlarini joriy etish, o‘quv jarayoniga zamonaviy pedagogik texnologiyalarni tatbiq etish hamda bu jarayonda axborot-kommunikatsiya texnologiyalari imkoniyatlaridan samarali foydalanishga katta e’tibor qaratilmoqda. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining PQ-4805 sonli qarorida «... kimyo va biologiya fanlari bo‘yicha ta’lim sifatini tubdan oshirish, ushbu fanlarni o‘qitishning mutlaqo yangi tizimini joriy etish, ta’lim muassasalarini zamonaviy laboratoriyalar, darsliklar va boshqa o‘quv jihozlari bilan ta’minlash, ushbu yo‘nalishlarga malakali o‘qituvchi-murabbiylarni jalb etish...» kabi muhim vazifalar belgilab berilgan [1; 1-6.].

Shu jihatdan qaraganda, kimyoni o‘qitishda harbiy kompetentlikni rivojlantirish texnologiyalari metodikasi, mezonlari hamda bosqichlarining metodik tizimini ishlab chiqish muhim ahamiyat kasb etadi.

O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2001 yil 16 avgustdagi 343-son Oliy ta’limning davlat ta’lim standartlarini tasdiqlash to‘g‘risidagi qaroriga muvofiq tasdiqlangan “Harbiy ish” ta’lim sohasining Davlat ta’lim standarti hamda mazkur faoliyatga taalluqli boshqa meyoriy-huquqiy hujjatlarda belgilangan vazifalarni amalga oshirishda, ushbu muammoning tadqiq qilinishi ma’lum darajada xizmat qiladi [2; 15-6.].

Adabiyotlar sharhi va metodologiya

Oliy va oliy harbiy ta’lim muassasalarida kimyo fanini o‘qitish metodikasini takomillashtirish jarayonini kimyoviy bilimlar asosida harbiy kompetentlikni rivojlantirish asosida amalga oshirish muhim tadqiq qilinishi lozim bo‘lgan masalalardan biridir.

Kompetentlik va harbiy, kasbiy kompetentlik sifatlarini rivojlantirish muammosi bir qator olimlar va tadqiqotchilar tomonidan tadqiq qilingan. Jumladan, Respublikamiz olimlaridan X.A.Mamatqulovning ilmiy izlanishlari ayni shu muammo bo‘yicha olib borilgan [3; 6-6.], unda harbiy sohada ingliz tili bo‘yicha kasbiy kompetentlikni takomillashtirish muammolari yoritilgan.

Mustaqil davlatlar hamdo'stligi (MDH) mamlakatlari olimlaridan O.N.Ovsyanikova kursantlarining kreativlik kompetentligini rivojlantirishning pedagogik psixologik shart-sharoitlari [4; 36-6.], A.I.Shishkov maxsus-taktik tayyorgarlik jarayonida kursantlarning kasbiy kompetentligini shakllantirish [5; 91-6.], A.I.Kozachok harbiy kadrlar kompetentligini kasbiy yo'naltirish texnologiyasi asosida shakllantirish [6; 21-6.] masalalarining o'ziga xos xususiyatlarini ilmiy asoslagan.

O'zbekistonda harbiy ta'limda kompetentli yondashuv B.Alimov [7; 28-6.], N.Muslimov [8; 46-6.]lar tomonidan o'rganilgan.

Qayd etilgan ma'lumotlar tadqiqot ishi doirasida ko'plab ilmiy-tadqiqotlar olib borilganligiga qaramay, kursantlarda harbiy kompetentlikni rivojlantirish metodini, ta'lim mazmunini takomillashtirish muammolarini hal etish borasida, ularda kimyoviy bilimlar asosida harbiy kompetentlikni rivojlantirish masalalari yetarlicha tadqiq etilmaganini anglatadi.

Asosiy qism

Oliy harbiy ta'limda kimyoviy bilimlar asosida harbiy kompetentlikni rivojlantirishning ilmiy-metodik asoslarini ishlab chiqish dolzarb muammoga aylanib bormoqda. Yuqorida keltirilgan ilmiy - nazariy va metodik tadqiqotlarning tahlili, oliy harbiy ta'lim tizimida kimyoviy bilimlar asosida harbiy kompetentlikni rivojlantirish texnologiyalarining nazariy-metodik asoslarini o'rganish zarurati mavjudligini bildiradi.

O'zbekiston Respublikasi prezidenti Qurolli Kuchlar Oliy Bosh Qo'mondoni Sh.M.Mirziyoyevning "O'zbekiston - ilm-fan, intellektual salohiyat sohasida, zamonaviy kadrlar, yuksak texnologiyalar borasida dunyo miqyosida raqobatdardosh bo'lishi shart" degan asosli da'vatlari asosida professional asosdagi armiyani shakllantirish, uning tarkibini yuqori malakali, kasbiy mahorat va jangovar qobiliyatga ega bo'lgan, o'z individual, shaxsiy, ijtimoiy xususiyatlari bilan harbiy kasb talablariga to'liq javob bera oladigan professional kadrlar bilan ta'minlash masalasiga jiddiy e'tibor qaratilmoqda. Shuning uchun, bo'lajak ofitserlarning kasbiy kompetentligini zamon talablariga mos ravishda takomillashtirish hamda oliy harbiy ta'lim muassasalari o'quv jarayoniga kompetensiyaviy yondashuvlarga asoslangan davlat ta'lim standartlarini joriy etish yechimini kutayotgan muammolardan biri hisoblanadi.

Kompetentlik - bu shaxsning muayyan ta'lim yo'nalishi yoki mutaxassisligi bo'yicha olgan bilimi, malaka va ko'nikmalari hamda shakllagan shaxsiy xislatlarini mehnat faoliyatida muvaffaqiyatli qo'llay olish qobiliyatidir [9; 98-6.].

Kompetensiya – (lot. competo – loyiqman, munosibman, erishayapman) u yoku bu sohadagi bilimlari tajribasi [6; 156-6.].

Harbiy kompetensiya - bu harbiy kasbiy tayyorgarlik va harbiy qismning, alohida askarning jangovar vazifalarini bajarishi va harbiy xizmat uchun javobgarligi tushuniladi. Harbiy xizmatchilarning harbiy mutaxassis sifatida vakolatlari o'quv jarayonida rivojlanadigan va harbiy faoliyat jarayonida asosiy kompetensiyalar tizimi bilan shakllanadi [7; 263-6.].

Kasbiy kompetentlikni rivojlantirishga yo'naltirilgan ta'limda: har qanday mashg'ulot faqat ta'lim oluvchi va o'rganilayotgan obyektning maqsadli o'zaro ta'siri bilan amalga oshiriladi, o'qitish o'qituvchining faol faoliyati bilan, ta'lim oluvchining qiziqishi va faoliyatiga mos ravishda amalga oshiriladi.

O'qituvchining kimyoviy bilimlarni berish jarayonida kasbiy yo'nalganlikni

ta'minlashi, uning ma'lum ta'lim maqsadlari, uning tarkibiy qismlari va elementlar, usullar va tashkilotlar to'g'risida xabardorligi bilan bog'liqdir. Kimyo fanini o'rganish shakllari va usullariga kasbiy tushunish tashkil etilgan taqdirdagina o'rganilishi mumkin bo'lgan tushunchalarni kiritish mumkin.

Ba'zi kimyoviy tushunchalarni kasblar bilan o'zaro bog'lashda, ba'zi tushunchalarni boshqalardan ajratishda kursantlarning faoliyatida o'qituvchining kasbiy ko'nikmaga asoslangan ongli harakatlari yordamida kasbiy ko'nikmalar shakllanishi mumkin. Mashg'ulotlar tegishli maqsadlarni hisobga olgan va ularga erishish uchun zarur bo'lgan o'qitish vositalari va usullarini o'z ichiga olgan mashg'ulotlar davomida amalga oshiriladi.

Bunda ta'lim mazmunining tarkibiy qismi uning ro'ida namoyon bo'ladi. Bu muntazam ma'lum darajada muqarrar bir vaqtning o'zida davom etadi (masalan, bilimlarni o'zlashtirishda, umumlantirilgan faoliyatning ayrim tuzilmalari o'zlashtiriladi, o'quv jarayonida kasbga munosabat kabilar).

Kimyo - bu moddalar, ularning tuzilishi, tarkibi va xossalarni o'rganadigan tabiiy fandir. Kimyoviy qonunlar va nazariyalar boshqa bog'liq tabiiy va texnik fanlarning rivojlanishiga sezilarli ta'sir ko'rsatadi. Shu bilan birga, kimyo ijtimoiy muammolarni hal qilish, har bir inson va umuman jamiyat ehtiyojlarini qondirish bilan bog'liq. Kimyoviy bilimlar umumiy insoniyat madaniyatining muhim qismidir va sivilizatsiyaning barqaror rivojlanishiga katta hissa qo'shishi bilan bir qatorda harbiy soha rivoji va mazmunida xos o'rin tutadi.

Agar kimyoviy bilimlar mazmuni aniqroq rejalashtirilgan va kasbiy xarakteristikalar prognozi aniqroq bo'lsa, mashg'ulotlar samaradorligi ta'minlanadi.

Birgina 2019 yil davomida 176 ta terrorchilik-qo'poruvchilik harakatlari va portlashlar sodir etilganligi, buning oqibatida 1494 dan ortiq tinch aholi vakillari halok bo'lganligi va 2616 nafardan ortig'i turli darajadagi tan jarohatlari olganligi, mazkur terrorchilik-qo'poruvchilik harakatlarini sodir etishda asosan nostandart portlovchi moddalar va kuchli detonatsiya keltirib chiqarish jarayonlari (masalan avtotransport vositalari yordamida portlatish) dan foydalanilganligi, zamonaviy janglarda maskirovka maqsadida kimyoviy tutun chiqaruvchi moddalardan, ommaviy qirg'in qurollaridan keng foydalanilayotganligi bo'lajak harbiy kadrlardan harbiy va kasbiy kompetentlikni oshirishni, kuchli kimyoviy bilimlar va ma'lumotlar bazasiga ega bo'lishni talab etmoqda.

Taklif va xulosalar

Davr ehtiyojlarining ortishi, harbiy faoliyatning murakkablashishi va ilmiy-texnik taraqqiyot tufayli imkoniyatlarining kengayish jarayonida harbiylik kasbi doirasida mehnatni optimallashtirish zaruratini yuzaga keltirdi. Demak har bir harbiy kadrning zarur shart sharoitlarda yetarlicha samarali xizmat qilishi uchun bilim, malaka va ko'nikmalari talab darajasida shakllangan bo'lishi lozim.

Xulosa sifatida kursantlar bilim olish mobaynida o'quv jarayoniga ta'sir etadigan odatiy sharoitlar, o'quv jarayoniga ta'sir etuvchi o'zgaruvchan o'quv vaziyatlarining tahlili natijasida zamonaviy sifat ko'rsatkichlari tizimini ajratib ko'rsatish mumkin:

kasbiy kompetentlikni rivojlantirishga yo'naltirilgan tarkibda ta'limning birligini ta'minlash, ta'lim berish va rivojlantirish uchun mo'ljallangan va dasturlashtiriladigan darajadagi o'quv vazifalarini bajarish;

o'quv jarayonida kursantlar uchun ochiq bo'lgan yaxlit tizimda tuzilgan bilimlar, ta'lim mazmunida, bilish jarayonlari va usullari, o'rganilayotgan jarayonlar mexanizmi va

amalga oshirilayotgan harakatlar tamoyillari to'g'risidagi bilimlar berish;

kursantlar tomonidan o'qitish usullariga ega bo'lish, aqliy faoliyatning tegishli usullari, o'z-o'zini o'qitish tizimiga o'tish istiqbolini belgilash;

kursantlarni dasturdan tashqari mashg'ulotlarga jalb qilish orqali ta'lim mazmunini kengaytirish, tegishli o'quv fanlari bilan o'zaro bog'lanishni e'tiborga olish;

jamiyat manfaatlariga mos keladigan qadriyatlar tizimini, o'qish va o'qitish sabablarini ta'minlash;

ta'lim mazmuni turlari va uni o'zlashtirish usullarining tabiati uchun umumiy didaktik o'qitish usullarining mavjudligi, shuningdek didaktik vazifalarni bajarish uchun muayyan o'qitish usullarining mosligi va ushbu tarkibni o'zlashtirishning o'ziga xos xususiyatlari ushbu ko'rsatkich har bir o'quv metodikasi bo'yicha umumiy didaktik nazariya nuqtayi nazaridan o'ziga xos o'quv uslublari tizimini ishlab chiqish;

o'qitishning zamonaviy vositalaridan oqilona foydalanish;

ijtimoiy tajribaning turli unsurlarini o'zlashtirish odatlarini va uning turli xil o'quv materialiga xos xususiyatlarini hisobga olgan holda o'qitish;

o'qitish samaradorligini monitoring qilish;

kasbiy faoliyat, o'zini o'zi anglashga tayyorlik va intilish, mehnat, aqliy, axloqiy va estetik tarbiya, qadriyatlar tizimini shakllantirish;

bilimlarning to'g'riligi va izchilligi, dastur tomonidan ta'minlangan o'quv faoliyati uslublari, shuningdek, bilim va o'z-o'zini tarbiyalash usullari bo'yicha ko'rsatkichlar, bilim va ko'nikmalarni ijodiy qo'llashga tayyorlik, o'quv materialiga va kasbga munosabatni shakllantirish.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:

1. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2020 yil 12 avgustdagi "Kimyo va biologiya yo'nalishlarida uzluksiz ta'lim sifatini va ilm-fan natijadorligini oshirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi PQ-4805-sonli Qarori. //Qonun hujjatlari ma'lumotlari milliy bazasi. 07/20/4805/1174-son, 13.08.2020 y.
2. O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2015 yil 10 yanvardagi Vazirlar Mahkamasining "Oliy ta'limning Davlat ta'lim standartlarini tasdiqlash to'g'risida 2001 yil 16 avgustdagi 343- son qaroriga o'zgartirish va qo'shimchalar kiritish haqida"gi 3-son Qarori.
3. Mamatqulov X.A. Harbiy pedagoglarda xorijiy tillar bo'yicha kasbiy kompetentlikni rivojlantirishning axborot metodik ta'minotini takomillashtirish. Monografiya. – Toshkent viloyati: Harbiy-texnik instituti bosmaxonasi, 2018. – 240 b.
4. Овсянникова О.Н. - Психолого-педагогические условия развития креативных способностей у курсантов военного вуза (на материале изучения курса иностранного языка): дис. ... канд. пед. наук / О.Н.Овсянникова - Орел – 2005
5. Шишков А.И. Формирование профессиональной компетентности курсантов военных вузов в ходе тактико специальной подготовки: дис. ... канд. пед. наук / А.И.Шишков Москва 2014 г 278 с.
6. Козачок А.И. Организационно –управленческая компетенция будущего военного специалиста в области телекоммуникаций/ А.И.Козачок Ученые записки Орловского государственного университета. №4 (77), 2017 г.

7. Alimov B.N. Kompetensiyaviy yondashuv – o‘quvchilarning matematik savodxonligi va madaniyatini oshirish vositasi sifatida. // «Uzluksiz ta’lim» ilmiy-uslubiy jurnali, T., 2015, 1-son.
8. Муслимов Н.А. Ҳарбий таълим уқитувчисини касбий шакллантиришнинг назарий-методик асослари. // Педагогика фанлари докторлик диссертацияси. - Т., 2007.
9. O‘zbekiston Milliy ensiklopediyasi. 4-jild –Т.: “O‘zbekiston Milliy ensiklopediyasi” davlat milliy nashriyoti, 2002, 1-son. 93-b.

УДК:004.4’275

MASOFAVIY TA’LIMDA VA MUXANDISLIK VA KOMPYUTER GRAFIKA O‘QUV FANINI MICROSOFT POWER POINT DASTURI YORDAMIDA ANIMATSIYADAN FOYDALANISH.

ИСПОЛЬЗОВАНИЕ АНИМАЦИИ В ДИСТАНЦИОННОМ ОБУЧЕНИИ И ОБУЧЕНИИ ИНЖЕНЕРИИ И КОМПЬЮТЕРНОЙ ГРАФИКЕ С ПОМОЩЬЮ ПРОГРАММЫ MICROSOFT POWER POINT.

THE USE OF ANIMATION IN DISTANCE EDUCATION AND ENGINEERING AND COMPUTER GRAPHICS CURRICULUM USING THE MICROSOFT POWER POINT PROGRAM

Axmedova Sh.A. (Kat. o‘qit. Tosh.DTU)
Tashpulatov R.X. (Kat. o‘qit. Tosh.DTU)
Yakubova M.M. (Kat. o‘qit. Tosh.DTU)

In this article, the intersection of surfaces with planes in a special case in distance education and the study of engineering and computer graphics using the Microsoft Power point program and the presentation of the animation of the intersection of the prism with the plane in a private situation is demonstrated. Also, for the step-by-step use of the program and some conclusions are outlined.

Key words: Computer Graphics, Program, animation presentation, program stages, motor, geometric elements, spatial drawing, flat drawing, central projection, projection beam, projection Center.

Ushbu maqolada masofaviy ta’limda va muxandislik va kompyuter grafika o‘quv fanini Microsoft Power point dasturi yordamida sirtlarni xususiy vaziyatdagi tekisliklar bilan kesishishi. prizmani xususiy vaziyatdagi tekislik bilan kesishishi animatsiyasini taqdimot qilish yoritilgan. shuningdek dasturni bosqichma-bosqich foydalanish uchun va ayrim xulosalar bayon qilingan.

Kalitli so‘zlar: Kompyuter grafikasi, dastur, animatsiya taqdimot, dasturining bosqichlari, vosita, geometrik elementlar, fazoviy chizma, tekis chizma, markaziy proeksiya, proektsiyalovchi nur, proektsiyalash markazi.

В этой статье рассматривается изучение инженерии и компьютерной графики в дистанционном обучении с использованием программного обеспечения